



## THE IMPORTANCE OF USING COMPUTER TECHNOLOGIES IN THE ORGANIZATION OF CHEMISTRY EDUCATION

Sanayeva Rahima

Teacher of Samarkand VXTXQTMOHM

Boboyeva Nigora

She is a teacher of 64th comprehensive school of Narpay district

### Annotation:

This article provides information on the use and importance of computer technology in the development of cognitive research in the teaching process of chemistry in general secondary schools.

**Keywords:** Cognitive learning, cognitive cognition, color pictures and pictures, slide shows or presentations, videos.

Hozirgi kundagi asosiy vazifalarimizdan biri o'quvchilarni shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotlarida uchraydigan vaziyatlarda egallagan turli tipdag'i malakalarini samarali ravishda qo'llashga o'rgatish, kognitiv bilimlarini mustaqil ravishda fanga oid zaruriy axborotlarni izlab topish, tahlil qilish natijasida zaruriy bilimlarni oshirishga oid materiallarni ajrata olish, ko'zda tutilmagan noaniq, ya'ni, muammoli vaziyatlar vujudga kelganda ish beradigan malakalarga alohida ahamiyat berish hamda egallagan bilimlarini kundalik turmushi jarayonida qo'llay oladigan xususiyatlarni egalashni tarbiyalashdan iboratdir.

Kimyo fani o'qituvchilarining kasbiy kompetentligi haqida fikr yuritar ekanmiz, uning pedagogik sifatlari insonparvarligi, tahlil qila olishi, ilmiy va dunyoviy bilimdonligi, dunyoqarashining kengligi, o'z xizmat vazifasiga munosabati, shaxsiy sifatlari odobi, imidji, xarakterining muqobilligi kabi bir qator xususiyatlarni o'zida mujassamlashtira olishi kerak. Bu esa, kimyo o'qituvchisida osonlikcha shakllanib qolmaydi. Buning uchun, o'z ustida doimiy izlanishi, ijod qilishi, zamonaviy axborot va kognitiv ma'lumotlarnio'z vaqtida egallab borilishini talab etadi.

Ta'lim va tarbiya barkamol insonni shakllantirish va rivojlantirishda birini ikkinchisidan ajratib bo'lmaydigan jarayondir. Bilim yuksak insoniy fazilatlar bilan bezalsagina samaralilik kasb etadi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining vazifalaridan biri ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni olib kirishdan iborat.

Texnologiya — bu shaxsni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish qonunlarini o'zida jo qilgan va yakuniy natijani ta'minlaydigan pedagogik faoliyatdir. Texnologiya tushunchasi tartibga solib turuvchi ta'sir etish kuchiga ega bo'lib o'qituvchilarni yangicha tafakkurlashga, erkin ijod qilishga undaydi.

Har bir dars o'quvchilarning bilimga qiziqishlarini va mustaqil ravishda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berishi uchun yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda — kognitiv hamda kreativ o'qitish samaradorligi va ish sifatini to'xtovsiz oshirish vazifasi ilgari surilmoqda. Pedagogik texnologiya doimo ta'lim maqsadini aniqlashdan boshlab, to uning natijalarini baholashgacha bo'lgan bosqichlarning har biri uchun ijodiy faoliyatni talab etadi. Ijodiy faoliyat esa o'qituvchilar oldiga juda katta mas'uliyat yuklaydi. O'quvchnlarning ongida muammoli vaziyatlar va vazifalarni shakllantirish, mustaqil yechimlarini qidirib topish, bilimlarni muvaffaqiyatli egallash va aqliy jihatdan rivojlanish omili sifatida, o'quvchilarning bilim faolligiga nisbatan diqqat-e'tiborning kuchaytirilishi o'quv jarayonini takomillashtirishga olib keladi.

Aytish joizki ta'lim sohasini kompyuterlashtirish va shu asosda dars o'tish differential ta'lrim (shaxsga yo'naltirilgan texnologiya) tomon qo'yilgan qadamlardan biridir. Bunda o'qituvchi bevosita



o'quvchilar bilan ularning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ishslash, o'quvchi esa o'zining ijodiy salohiyatini boyitish, qiziqarli materialni o'zi tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Amaliyotdan ma'lumki ko'p holatda kompyuter texnologiyalaridan yaxshi xabardor bo'lgan o'quvchilar mustaqil ravishda maktab dasturidan chetga chiqadigan qiziqarli materiallarni tayyorlashgan va uning taqdimotini dars jarayonida o'tkazishgan. Shuningdek, kompyuter texnologiyalari o'quvchining dunyoqarashini kengaytirishga, bilimini oshirishga ham samarali xizmat qiladi.

Kimyo darslarida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish bevosita uning sifatini oshirishga xizmat qiladi. Kompyuterdan har bir o'quvchi fan bo'yicha testlar tuzish va ularga javob berish, xatolar ustida ishslash, o'tkaziladigan laboratoriya tajribalarini modellashtirish, berilgan tajriba shartlarini o'zgartirishi, jarayonni mustaqil ravishda tadqiq etishi mumkin. Bu, o'z navbatida, yoshlarda tadqiqot o'tkazish uchun ko'nikmalarining shakllanishiga; biror bir voqyelik yoki jarayonning o'ziga xos qonuniyatlarini izlashiga imkoniyat beradi. Rasmlar, jadvallar, animatsiya, videolavhalar, katta matndan foydalanish o'quvchiga uning uchun qulay bo'lgan shaklda materialni qabul qilish, uni o'zlashtirishga qulay sharoit yaratadi.

Kompyuter loyihibar usulini amalga oshirishda ham qo'l keladi. Turli xil material va formulalarni ko'rgazmali ravishda namoyish etish multimedia taqdimotlarida amalga oshirilishi mumkin. Agarda o'quvchi murakkab dasturlardan foydalana olsa, multimedia taqdimotini ovozli va videolavhali qilish mumkin.

Aksariyat o'quv-tarbiyaviy jarayonda kompyuter texnologiyalarining quyidagi yo'nalishlaridai foydalaniladi:

Rangli rasmlar va suratlar — illyustrativ qatorni kengaytirish imkonini beradi, darsni real hayotga yaqinlashtiradi.

Slayd-shou yoki taqdimotlar — o'qituvchi sharhi bilan beriladigan almashib turuvchi illyustrasiyalar taqdimotlarni yaratishda asosan Power Point dasturi qo'llaniladi.

Videolavhalar — avvalgi o'quv kino va videofilmlarning rolini bajaradi. Ammo kompyuter texnologiyalari bilan hamohang tayyorlangan bunday lavha dars jarayonini yangi sifat bosqichiga olib chiqadi (kadrni nusxalash, pauzalardan foydalanish imkon, alohida kadrni kattalashtirib ko'rsatish, kadrlarni matn bilan birgalikda ko'rsatish va hokazo).

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

- Nishonov M., Mamajonov Sh., Xo'jayev V. Kimyo o'qitish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi, 2002 yil.
- Rahmatullayev N.G. Kimyo o'qitish metodikasi fanidan ma'ruzalar matni. Toshkent. TDPU, 2007.
- Rahmatullayev N.G., Omonov X.T., Mirkomilov Sh.M. Kimyo o'qitish metodikasi. Toshkent., «O'qituvchi». 2008.
- Ziyonet.uz

<b>Muallif(lar)ning F.I.Sh</b>	Sanayeva Rahima Amirqulovna Boboyeva Nigora Amirqulovna
<b>Sho'ba nomi</b>	Ta'lim jarayonida kognitiv tadqiqotlardan foydalanish samaradorligi.
<b>Maqolaning mavzusi</b>	Kimyo ta`limini tashkil etishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati
<b>Lavozimi, ilmiy darajasi, unvoni</b>	O'qituvchi
<b>Ish joyi</b>	Samarqand VXTXQTMOHM o'qituvchi Narpay tumani 64- umumiyl o'rta ta'lim maktab o'qituvchisi
<b>Telefon(kodi bilan )</b>	+99897 406 33 64; +998 94 479 25 45
<b>E-mail</b>	